

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA KONSENSUM TUSHUNCHASINING LINGVOKOGNITIV VA MILLIY-MADANIY TAHLILI

Qodirova Munisabonu Ibrohimjon qizi

Fergana State University, Master

munirasattorova879@gmail.com: 91-113-71-31

Abstract: This article analyzes the linguo-cognitive and cultural aspects of the concept of “consensus” in English and Uzbek. It explores the conceptual frameworks formed around the term, the language units associated with it, and how these reflect the worldview, social values, and communicative norms of each culture. The comparative analysis highlights how the idea of social agreement and unity, as expressed by “consensus,” is represented and perceived in both linguistic and cultural contexts.

Кади́рова Муни́сабону Ибро́химжа́новна

Ферганский государственный университет, магистр

munirasattorova879@gmail.com : 91-113-71-31

Аннотация: В данной статье проводится лингвокогнитивный и культурный анализ понятия «консенсус» в английском и узбекском языках. Рассматриваются концепты, формирующиеся вокруг данного термина, языковые единицы, связанные с ним, а также отражение через них мировоззрения, социальных ценностей и коммуникативных норм народов. В сравнительном аспекте исследуется, как идея общественного согласия и единства выражается и воспринимается в обеих языковых и культурных средах.

Qodirova Munisabonu Ibrohimjon qizi

Farg’ona Davlat Universiteti, Magistr

munirasattorova879@gmail.com : 91-113-71-31

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “konsensus” tushunchasining lingvokognitiv xususiyatlari va uning milliy-madaniy jihatlarini tahlil qilinadi. Tushuncha asosida shakllangan konseptlar, ular bilan bog‘liq til birliklari hamda ular orqali aks ettirilgan xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyatlari va kommunikativ odatlari o‘rganiladi. Shuningdek, “konsensus” atamasi orqali ifodalanadigan ijtimoiy kelishuv va hamjihatlik holatlarining har ikki til va madaniyatda qanday namoyon bo‘lishi solishtirma tahlil asosida yoritiladi.

Keywords: consensus, linguo-cognitive analysis, cultural-specific features, conceptual analysis, intercultural communication, language and cognition, social

agreement.

Ключевые слова: консенсус, лингвокогнитивный анализ, национально-культурные особенности, концептуальный анализ, межкультурная коммуникация, язык и мышление, социальное согласие.

Kalit so'zlar : konsensus, lingvokognitiv tahlil, milliy-madaniy xususiyatlar, konseptual tahlil, madaniyatlararo kommunikatsiya, til va tafakkur, ijtimoiy kelishuv.

O'zbek jamiyatida konsensusga erishish og'zaki kelishuv, kattalar maslahatini olish, hurmat va jamoaviy qaror qabul qilish tamoyillariga asoslanadi.

Asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi. Og'zaki kelishuv o'zbek madaniyatida muhim hisoblanadi. Ko'pchilik hollarda shartnomalar va hujjatlar ikkilamchi ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab insonlar o'rtasidagi o'zaro kuchli ishonch hisoblanadi. Keksalar va kattalarning fikri har doim ustuvorlik qiladi. Konsensusga erishishda yoshi kattalar va hurmatli shaxslarning maslahatlari asosiy omil bo'ladi. Jamoaviy birdamlik va hamjihatlik ham muhimo'rin tutadi. O'zbek madaniyatida mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish afzalroq hisoblanadi.

Ingliz madaniyatida konsensusga erishish muloqot, murosaga kelish, huquqiy kelishuvlar va yozma shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Asosiy xususiyatlarda esa o'zbek madaniyatidan ancha farq qiladi. Yozma hujjatlar va rasmiy kelishuvlar ingliz madaniyatida og'zaki kelishuvdan ko'ra muhimroq. Har qanday kelishuv aniq hujjatlar bilan tasdiqlanadi. O'zaro muloqot va diplomatiya ustuvordir. Mojarolar muhokama orqali hal etiladi. Indivud va jamoa huquqlari ingliz madaniyatida o'z muvozanatiga ega. Har bir shaxsning fikri alohida e'tiborga olinadi.

Konsensum tushunchasi lingvistik jihatdan turli tillarda turlicha ifodalanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi konsensum tushunchasining lingvistik xususiyatlari quyidagicha bo'lishi mumkin. Ingliz tilida konsensum: Terminologiya va ifodalash shakllaridagi o'zaro farqlar. Ingliz tilida konsensum, ko'pincha "consensus" so'zi orqali ifodalanadi. Bu so'z ham birgalikda kelishuvga erishishni, ham keng tarqalgan fikr yoki qarorni anglatishi mumkin. Kontekstual ishlatish: "A consensus opinion", "reach a consensus", "build a consensus" kabi ifodalar mavjud. Bu shuni anglatadiki, guruhning birlashgan qaroriga erishish jarayonida barcha tomonlar bir-birining fikrini hisobga olishadi. Grammatikada konsensum so'zining ishlatilishi. "Consensus" so'zi ingliz tilida uncountable nom sifatida ishlatiladi. U shunday ishlatiladi: "*The consensus is...*", "*There is a consensus on...*", "*We reached a consensus on...*".¹ Pragmatikada konsensum so'zining ishlatilish qoidalari. Ingliz tilida konsensum tushunchasining pragmatik xususiyatlari ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning orasida ijtimoiy kontekst, muloqotda ishtirok etayotgan shaxslar o'rtasidagi munosabatlar, va tilning maqsadli ishlatilishi muhim rol o'ynaydi. Quyida konsensum tushunchasining ingliz

¹ G'afurov A. O'zbek tilida nutq etiketining lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: Akademnashr, 2016.p.23

tilidagi pragmatik xususiyatlarini keltiriladi. 1. Kontekstga bog'liqlik. Konsensum tushunchasi odatda guruhlar yoki jamoalar o'rtasidagi muhokama jarayonida ishlatiladi. Buning uchun kontekst juda muhimdir. Misol uchun, siyosat va qarorlar: Siyosiy partiyalar yoki davlat idoralari o'rtasida konsensumga erishish, muhim qonun yoki siyosiy qarorni ishlab chiqishda ishlatiladi. Tadqiqotlar va ilmiy sohalar: Ilmiy jamoalarda konsensum ko'pincha ilmiy yondoshuv yoki natijalarga asoslangan qarorlar qabul qilishda ishlatiladi. 2. Muvozanat va kelishuvga erishish. Konsensum, asosan, o'zaro kelishuvga erishish va barcha ishtirokchilarni qoniqtirish jarayonini anglatadi. Bu, ko'pincha, bir necha tomonlar yoki fikrlar o'rtasida bir muvozanatga erishishni talab qiladi. Ingliz tilida bu jarayonni ifodalashda ko'pincha *"reach a consensus"* yoki *"build a consensus"* kabi iboralar ishlatiladi. Misollar: *"The committee reached a consensus after several hours of discussion."* *"We need to build a consensus on the new policy."* 3. Muvofiqlashtirish va shartlar. Konsensumga erishish, ko'pincha, barcha tomonlar bir-birining fikrini tinglash, muvofiqlashtirish va ba'zi shartlarda kelishishga asoslanadi. Ingliz tilida bu jarayonni ifodalovchi so'zlar *"compromise"* va *"agreement"* kabi so'zlar bilan birga ishlatiladi.² Bu esa muhokama jarayonida shartlar, fikrlar va qarorlarni kelishish zarurligini ko'rsatadi. 4. Ijtimoiy rol va etiket. Ingliz tilida konsensum tushunchasi ijtimoiy etikaga va muloqotda ishtirok etayotgan shaxslarning roliga ham bog'liq. Masalan: korporativ yoki siyosiy kontekstda: Muloqotda ishtirok etayotgan shaxslar o'rtasida tenglik yoki muvozanatni saqlash maqsadida konsensumga erishish talab qilinadi. Bu yerda konsensumni olish, ijtimoiy normaga va muhokamaning adolatli bo'lishiga bog'liq. Kichik guruhlar va oilaviy kontekstlarda: Konsensumga erishish, ko'pincha hamkorlik va yaqin munosabatlarga asoslanadi. Misol uchun, oilada yoki kichik guruhda qaror qabul qilishda konsensumga erishish odatda sadoqat va hurmatni ta'minlashga qaratilgan. 5. Ijtimoiy kuch va manipulyatsiya. Ba'zan konsensumga erishish jarayoni ijtimoiy kuch yoki manipulyatsiya bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bunda konsensumni olish jarayoni ba'zi shaxslarning fikriga ustunlik berish yoki boshqalarni o'z fikriga moslashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bunday pragmatik xususiyatlar ko'pincha siyosiy yoki tijorat maqsadlarida yuzaga keladi.

Til va intonatsiya. Konsensumga erishish jarayonida ingliz tilidagi intonatsiya va tilning subtikalariga ham e'tibor berish zarur. Masalan, *"I think we might have reached a consensus"* yoki *"I believe we are getting close to a consensus"* kabi iboralar yengil ijobiy bir tushuncha beradi, bu esa muhokama jarayonining muvaffaqiyatli o'tishini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, *"There is a consensus, but it's not quite final yet"* kabi ifodalar hali o'zaro kelishuvga erishilmaganligini anglatishi mumkin. Ingliz tilida konsensum tushunchasi pragmatik nuqtai nazardan guruhlar, ijtimoiy etiket, muhokama jarayonining tabiatiga, shuningdek, ishtirokchilar o'rtasidagi

² Boboxonov U. Til va madaniyat: lingvokulturologik tadqiqot. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.p.44

munosabatlarga bog'liq bo'lib, tilning kontekstual ishlatilishi va sozlash o'zgartirishlari orqali ifodalanadi. Bu tushuncha ijtimoiy kelishuvlar, muvofiqlashuv va adolatli qaror qabul qilishni anglatadi. Ingliz tilida konsensumning pragmatik jihati shundaki, bu tushuncha ko'pincha muhokama yoki qaror qabul qilish jarayonining oxirida ishlatiladi, masalan, siyosiy yoki tashkilotda.

O'zbek tilida konsensumning ishlatilish holatlari ingliz tilidan biroz farq qiladi. 1. Terminologiya va ifodalash shakllari: O'zbek tilida "konsensum" so'zi turli xil shakllarda ishlatiladi, ammo bu tushuncha ba'zida "kelishuv", "o'zaro fikr almashish" yoki "birgalikda qaror qabul qilish" kabi atamalar bilan ham ifodalanadi. ³Kontekstual ishlatish: "Konsensumga erishish", "birgalikda konsensumga kelish", "o'zaro kelishuv" kabi ifodalarda ishlatiladi. 2. Grammatika: O'zbek tilida konsensum so'zi odatda jamlovchi nom sifatida ishlatiladi. "Konsensumga erishish", "konsensumga kelish", "konsensumda bo'lish" kabi iboralar ko'pincha ishlatiladi. 3. Pragmatika: O'zbek tilida konsensum tushunchasining pragmatik xususiyatlari ham tilning ijtimoiy va muloqot kontekstida, shuningdek, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar va muloqot maqsadlariga bog'liq.

O'zbek tilidagi konsensum tushunchasining pragmatik xususiyatlari quyidagicha tahlil qilinishi mumkin. 1. Kontekstga bog'liqlik. O'zbek tilida konsensum ko'pincha ijtimoiy, siyosiy yoki ishbilarmonlik kontekstida ishlatiladi. Siyosiy va jamiyatda: konsensumga erishish ko'pincha turli siyosiy kuchlar o'rtasida yoki jamiyatda muhim qarorlar qabul qilishda qo'llaniladi. Bu, o'zaro kelishuv va birlashgan qarorlarni anglatadi. Tadqiqotlar va ilmiy sohalar: O'zbek tilida ilmiy muhitda ham konsensum tushunchasi, ilmiy fikrlar va yondoshuvlar o'rtasida birlashishga ishora qiladi. 2. Kelishuv va muvozanat. Konsensumga erishish o'zaro kelishuvni va muvozanatni ta'minlashni anglatadi. O'zbek tilida bu jarayon ko'pincha "kelishuvga erishish", "birgalikda qaror qabul qilish" kabi ifodalar bilan ifodalanadi. Bu ifodalar, guruhning barcha a'zolari o'rtasida fikr almashish va qarorlarni birgalikda qabul qilishni talab qiladi.⁴ Misollar: *"Barcha tomonlar kelishuvga erishdi."* *"Birinchi navbatda, biz konsensumga kelishimiz kerak."* Ijtimoiy etiket va rol. O'zbek tilida konsensum tushunchasi ijtimoiy etiket va shaxslarning rollariga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan: Oilaviy va kichik guruhlarida: O'zbek tilida konsensum, oilada yoki kichik guruhda qarorlar qabul qilishda ko'pincha ishtirokchilar o'rtasidagi hurmat va hamjihatlikni ta'minlashga qaratiladi. Korporativ kontekstda: Ish joyida, ayniqsa, rahbar va xodimlar o'rtasida konsensumga erishish ko'pincha hamkorlik va muvozanatni saqlashni talab qiladi. Tilning ko'rsatuvchi va ifodaviy shakllari. O'zbek tilida konsensum tushunchasi ko'pincha "konsensumga erishish", "birgalikda kelishuvga erishish", "konsensusda bo'lish" kabi iboralar orqali ifodalanadi. Bu ifodalar, tilning pragmatik kontekstiga

³ G'afurov A. O'zbek tilida nutq etiketining lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: Akademnashr, 2016.p.45-47

⁴ Mamatov A. Til va jamiyat: kommunikativ aspekt. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.p.46-53

qarab, kelishuvni anglatadi va muloqotda ishtirok etayotgan tomonlarning fikrlariga mos kelishini ta'minlaydi. Subyektiv yondashuv va manipulyatsiya. Ba'zi hollarda, konsensumga erishish jarayoni ijtimoiy yoki siyosiy manipulyatsiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, bir tomon o'z manfaatlarini boshqalarga qabul qildirishga harakat qilishi mumkin. Bu pragmatik jihat siyosat va biznesda ko'proq uchraydi. Misol: "Ba'zi tomonlar konsensumga erishishda o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab harakat qilishmoqda." Intonatsiya va ta'kidlash. O'zbek tilida konsensum tushunchasini ifodalashda intonatsiya ham muhim rol o'ynaydi. "Biz konsensumga erishdik" degan ifoda kuchli ishonch va muvaffaqiyatni ko'rsatishi mumkin, lekin "Konsensumga erishishga harakat qilmoqdamiz" degan ⁵ifoda esa hali yakuniy kelishuvga erishilmaganini anglatadi. Bu intonatsiya orqali muloqotdagi ijtimoiy ahvol va muhokama darajasi haqida ma'lumot berish mumkin. Rasmiy va norasmiy til ishlatish. O'zbek tilida konsensum tushunchasi rasmiy va norasmiy muloqotda farq qiladi. Rasmiy kontekstda, masalan, siyosiy yoki biznes uchrashuvlarida konsensum ko'proq aniq va qat'iy ifodalangan bo'ladi: "Biz konsensusga erishdik". Norasmiy kontekstda esa bu tushuncha yanada yumshoqroq va erkinroq ifodalanadi: "Biz kelishib oldik", "Xo'sh, buni shunday qilamizmi?"⁶

O'zbek tilida konsensum tushunchasining pragmatik xususiyatlari ijtimoiy va madaniy kontekstga, shuningdek, muloqotdagi maqsad va ishtirokchilarning rollariga qarab farq qiladi. Bu tushuncha ko'pincha kelishuv, muvozanat va hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan, lekin ba'zi hollarda ijtimoiy yoki siyosiy manipulyatsiyaga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Tilning grammatik va pragmatik jihatlari orqali konsensumning turli shakllari va ishlatilishlari farq qiladi. O'zbek tilida konsensumning pragmatik jihati ham muhokama yoki qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, guruhlar o'rtasidagi fikr almashinuvi va kelishuvni ifodalaydi.

Ingliz tilidagi "consensus" so'zi va o'zbek tilidagi "konsensum" so'zi bir-biriga juda o'xshash, lekin tilning o'ziga xos grammatik va pragmatik xususiyatlariga qarab ularning ishlatilishi farq qiladi. O'zbek tilida bu tushuncha ko'pincha boshqacha ifodalanadi yoki boshqa atamalar bilan birgalikda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1 Boboxonov U. (2008) . Til va madaniyat: lingvokulturologik tadqiqot. – Toshkent: O'zbekiston
2. Duranti, A. (2007). Linguistic Anthropology. – Cambridge University Press.
3. Jo'rayev R. (2012). Diplomantik muomala va muzokaralar etiketi. – Toshkent: Yangi asr avlodi
4. Mamatov A. (2018). Til va jamiyat: kommunikativ aspekt. – Toshkent: Fan

⁵ Jo'rayev R. Diplomantik muomala va muzokaralar etiketi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.p.76

⁶ Duranti, A. Linguistic Anthropology. – Cambridge University Press, 1997.p.342-356

va texnologiya.

5. Nemetskaya, T.A. (2010). Kognitivnaya lingvistika: osnovy i perspektivy. Moskva: Flinta.

6. Nurmonov, A. (2008). Til – tafakkur – madaniyat. Toshkent: Akademnashr.

7. Searle, J.R. (1995). The Construction of Social Reality. New York: Free Press.

8. Sharifov, Sh.S. (2016). Milliy tafakkur va til konseptlari. Toshkent: Yangi asr avlodi.

9. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford: Oxford University Press.

10. Yuldasheva, D.A. (2020). Konseptlar lingvokulturologik talqinda. Samarqand: SamDU nashriyoti.